

SURXON-SHEROBOD VOHASI QO'NG'IROTLARI AN'ANAVIY CHORVACHILIGIDAGI ETNIK XUSUSIYATLAR

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi dotsenti v.b.,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com.
UDK: 39:314.114(091)(575.151)
<https://orcid.org/0009-0004-0796-1493>

Annotatsiya: Tabiiy-geografik sharoit har bir etnosning kundalik mashg‘uloti, turmush tarzi, moddiy va ma’naviy madaniyati, dunyoqarashi, shu bilan bir qatorda an’anaviy xo‘jalik faoliyati hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan an’analarga aloqadordir. O‘rtal Osiyo xalqlarining qadimiy ajdodlari uzoq davrlardan boshlab tabiiy sharoitga moslashib, o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy tiplarini yaratganlar.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, qishlov joyi, bir suruv otar, tamg‘a, og‘ilxona.

O‘zbeklar qadim davrlardan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelganlar. Ammo, o‘troq aholi bilan yarim o‘troq aholi o‘rtasida turli xildagi chorva xo‘jaligi mavjud bo‘lgan. Ilgari ko‘chmanchi bo‘lgan qabilalardan Movarounnahr turklari, Dashti Qipchoqdan kelib joylashgan ko‘chmanchi o‘zbeklar yarim o‘troq holda yashab chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Ayniqsa, qo‘ng‘irot, loqay, qarluq, turk kabi yirik qabilalarining avlodlari chorvador hisoblanganlar[1].

Mintaqada yashagan qo‘ng‘irotlarning xo‘jalik hayotida chorvachilik qadimgi davrlardan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va xo‘jalik faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida qaralgan. O‘troq aholi vakillarida chorva boqishning qo‘ra-yaylov va qo‘ra tizimi shakllangan bo‘lsa, yarim o‘troq aholida esa yaylov tizimi ustun turgan bo‘lib, ularning an’anaviy xo‘jaligida ham yaylov chorvachiligi muhim o‘rinni egallab kelgan.

Qo‘ng‘irotlarning an’anaviy xo‘jaligida chorvachilikning qo‘ychilik, echkichilik, yilqichilik kabi sohalari alohida ahamiyat kasb etgan. Boysun va Sherobod hududlaridagi tog‘ va yaylovlarda qo‘ng‘irotlar turmush tarziga mos yaylov chorvachiligi uchun xarakterli bo‘lgan asosiy xususiyat – chorvani yil bo‘yi yaylovdagi o‘tlar bilan oziquantirishi bo‘lgan. Bu davrda o‘z oilasi yoki oila a‘zolarining bir qismi bilan chorva joylashgan yaylovda yashagan. XIX asrda yarim o‘troq o‘zbek urug‘larining aksariyati uchun yaylovda chorvachilik qilishi yashash tarziga ham ta’sir o‘tkazgan.

Surxon-Sherobod vohasida yashagan qo‘ng‘irotlarda chorvachilik xo‘jaligi asosan qo‘ychilik bilan bog‘liq hisoblangan. O‘zbek chorvachiligidagi qo‘ychilik nafaqat go‘sht va sut iste’molina bo‘lgan ehtiyojni, balki qimmatli xomashyo – jun va teri olishda ham muhim edi. Ayniqsa, qimmatbaho mahsulot – qorako‘l zotli qo‘ylardan olinadigan teri hisoblangan[2]. Qo‘ng‘irotlar chorvachilik bilan shug‘ullanib, qo‘ychilikka alohida mehr qo‘ygan va bu uzoq tarixiy an’anaga ega[3].

Qo‘ng‘irotlar tog‘oldi hududlarida va vohalarga tutashgan cho‘llarda joylashib, o‘tov va kapalarda yashagan. Erta bahorda chorva mollari, ot-yilqilarini haydab tog‘larga chiqib ketishgan. Don ekinlari va poliz mahsulotlari yig‘ishtirib olinganidan keyin poda va chorvasini haydab qishlov joyiga (qishloqqa) kelib, kech kuzni va qishni o‘tkazishgan. Erta bahorda yana dasht va qir-adirlarga chiqib ketishgan.

Vohada yashovchi qo‘ng‘irotlar o‘z chorvasini keng yaylovlarga ko‘klamda ko‘chirib o‘tgan va o‘zlariga tegishli yaylovda kuz oxirigacha yashagan. Bunda har bir urug‘ning o‘zi azaldan

ko‘chib borib egallagan yaylov hududlari bo‘lgan. Sherobod tumanining Chuqurko‘l qishlog‘ida yashovchi qo‘ng‘irot-ayinlilarning qoraqalpoq shohobchasingning uchta katta yurti bo‘lgan. Ular Turkmanistonda Laylim, Sherobod tumani Chuqurko‘l qishlog‘i va Bobotog‘ oralig‘ida chorva boqishgan. XX asrning 90-yillarigacha qo‘ng‘irotlar Turkmaniston va Bobotog‘da yashovchi qarindoshlari bilan bordi-keldi qilib turishgan[4].

Qo‘ng‘irotlar yashaydigan Boysun hududi qo‘ychilikka ixtisoslashgan muhim mintaqalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi N.A.Mayevning ta’kidlashicha: “Qo‘ng‘irotlar, umuman, boysunliklarning muhim boyligi tog‘li mintaqalarda haydar boqiladigan bo‘rdoqi qo‘ychilikdir. Qishda Boysun chorvadorlari qo‘shni Qashqadaryo vohasida Qarshi va G‘uzor oralig‘ida joylashgan dashtlarga tushgan. G‘uzorda o‘z chorvalarini Qarshi orqali Buxoroga yoki Shahrisabz orqali Samarcandga olib ketadigan chorva savdogarlariga sotganlar. Boysun bo‘rdoqi qo‘ychiligi yuqori tovar xarakterida bo‘lgan.

Qo‘ng‘irotlarning har bir urug‘i yaylovga borganida bir necha oila o‘tov “qora uy” larini o‘zaro yaqinroq joyga o‘rnatib, ovul tashkil etgan va mavsum tamom bo‘lgunga qadar, yaylovdagi tabiiy sharoitlardan, ya‘ni, o‘tloqdan, suv manbalaridan birgalikda foydalanishgan. Hatto, kam sonli chorvaga ega bo‘lgan ayrim oilalar chorvasini birlashtirib – bir suruv otar qilib birgalikda boqishgan. Ular yozgi yaylovga ko‘chganda buloq va quduqqa yaqin yerlarda joylashishgan. Bir necha urug‘ uchun bitta quduq bo‘lgan. Quduqdan suvni tuya yoki ot yordamida tortib olishgan.

Qo‘ng‘irotlarda chorvachilik an’anasiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning o‘ng qulog‘iga en (belgi), yilqi va qoramollarning orqa soniga tamg‘a bosilgan[5]. Har bir urug‘ning tamg‘asi boshqasiniidan farq qilgan. Masalan, qo‘ng‘irotning qo‘shtamg‘ali urug‘ida tamg‘asi qo‘sh tamg‘a bo‘lsa, oytamg‘alilarning tamg‘asi oy shaklida bo‘lgan.

Professor N.Norboevning yozishicha, Sherobod va Angor tumanlarida yashovchi qo‘ng‘irotlar orasida “men otlarni yoki mollarni tamg‘alab qo‘ydim”, deganda aynan yuqoridagi shakldagi tamg‘ani qizitib, ot yoki qoramollariga belgi qo‘yish jarayoniga nisbatan qo‘llagan[6]. Yoshi ulug‘ qo‘ng‘irotlarda jig‘a kiyimlarni jog‘asi (yoqasi) ham yarim oy shaklida bo‘lib, hozir bu keksalar kiyimlarida uchrab turadi. Ushbu misol qo‘ng‘irotlarning tamg‘asi yarim oy ko‘rinishda bo‘lganligini isbotlaydi.

Surxon-Sherobod vohasida, qoramollar asosan suti, go‘shti va terisi uchun alohida e’tiborga olingan va boqilgan. Bu haqida A.Middendorfning e’tirof etishicha, “Turkiston o‘lkasining ko‘pgina mintaqalarida XX asrning boshlariga qadar “zebu” ko‘rinishidagi jaydari qoramol boqilgan. Bu turdagiligi zot mahalliy iqlimga mos, kasallikka chidamli va ozuqani ko‘p tanlamas edi. Zarur paytda tez semiradigan bu zotdagiligi qoramol jussasi nisbatan kichik bo‘lib, atigi 3-4 litr sut bergen. Lekin uning sutining yog‘liligi 4 % gacha borgan. Urchishi podada sodir bo‘lib, bu ish bilan maxsus shug‘ullanilmagan”[7]. Oilada qadimdan “etti xazinaning biri”[8], “oilaning bakovuli”[9] hisoblanuvchi qoramol-sigir baraka va to‘kinlik timsoli sifatida qaralib, ushbu jonivorga atab alohida joy-og‘ilxonalar qurilgan. Albatta, bu holat qoramoldan olinadigan sut, yog‘ va go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning doimiy ravishda ta’minkab boqilishiga bog‘liq bo‘lgan. Yarim o‘troq va lalmi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qo‘ng‘irotlarda chorva mollarini e’zozlash, bu ularning kundalik mashhg‘ulotlarining bir qismiga aylanganidan ham dalolat beradi.

Odatda, qoramol boqishning ikki turi bo‘lib, birinchisi-yaylovlardaga cho‘ponlarga berib boqtirish, ikkinchisi-uy sharoitida boqishgan. Chorva mollarini soni ko‘p bo‘lsa, yaylovlardaga boqilgan, chunki uy sharoitida ularni boqish imkonini yo‘q edi. Mahalliy zotli qoramollarning sigirlari yirik, ho‘kizlari kichik shoxli bo‘lib, tabiiy sharoitga moslashganligi, yuvvoshligi va ozuqaga nisbatan talabchan emasligi bilan ajralib turgan. Sigirining suti yog‘liligi, ammo miqdorining kamligi uning asosiy kamchiligi bo‘lgan. Ushbu jaydari sigir bir kunda o‘rtacha 2-2,5 litr sut bergen[10].

1917 yilga qadar, Rossiya imperiyasida qoramolchilik rivojlanmagan va mollarning mahsuldarligi kam bo‘lgan. Shuning uchun 1918 yildan boshlab maxsus Dekretga asosan naslchilik xo‘jaliklari, zavodlar va rassadniklar tashkil qilina boshlangan. Butun mintaqaga bo‘ylab qishloqlarda dehqon xo‘jaliklari hamda qishloq xo‘jaligi shirkatlarida chorva mollarining sonini ko‘paytirish va mahsuldarligini oshirish uchun bir qator zootexnika tadbirlari bajarilgan. Shu jumladan, sun’iy urug‘lantirish punktlari tashkil qilingan va nazorat assistentlik ishlari olib borilgan. Jamoa va davlat xo‘jaliklarining tuzilishi hamda yirik chorvachilik fermalarining tashkil etilishi qoramolchilikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Buning natijasida 1934 yildan-1940 yilgacha qoramollar soni 63 % ga qadar ortib borgan[11].

Chorva mollar sonining qo‘payib borishi aholi soni va yangi xo‘jaliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligi bilan ham izohlanadi. XX asrning 80-yillaridan chorva mollarini, xususan, qoramollarni og‘ilxonalarda boqish usuli keng yoyiladi. 1981-1990 yillarda iqtisodiy muammolar tufayli mintaqadagi davlat xo‘jaliklari qaromog‘idagi fermalarda qoramollar sonining kamayib ketishi boshlangan. Shu tariqa chorva mollarining rejasiz tarzda sotib yoki so‘yib yuborilishi avj olgan[12].

Mamlakatimizda 1991-2000 yillar davomida qoramolchilikda ijobiy natijalarga erishildi[13]. Sug‘orma dehqonchilikka ixtisoslashgan hududlarda aholi o‘z qoramollarini asosan uy sharoitida parvarish qilgan. Qoramollarning kasalliklarga chalinmasligi uchun ular saqlanayotgan xonalarning mikroiqlimiga alohida e’tibor berishgan[14]. Qish fasilda qoramollar og‘ilxonalarda saqlanib, issiq kunlarda molxona ayvonlarida yoki maxsus qurilgan bostirmalarga chiqarilgan. Podabonlar qoramollarni yaylovlarda boqqan. Qoramollarni yaylovlarda erta bahordan oktyabr oyigacha, ba’zan esa noyabrgacha qarashgan.

XX asrning 50-60 yillarigacha tog‘lik hududlarda qoramoldan xo‘jalik ishlarida foydalanishgan. Bahorgi va kuzgi ekish mavsumida yerni takroriy haydashda qoramol kuchiga ehtiyoj bo‘lgan. Ho‘kizlar omochga qo‘silgan. Chunki, yerni shudgorlash, haydash ishlarida asosiy ishni ho‘kizlar bajarib bergen. Omochlar o‘lchovi bilan farqlangan, qo‘shiladigan molning kattaligi va kuchi omoch ishlatiladigan joy, haydovchining bo‘yi va omochning qanaqa materialdan tayyorlangani hisobga olingan. yer haydashda otlardan foydalanimagan, chunki ular tez charchab, yerni tekis haydolmagan hamda otlarni ishlatish ancha qimmatga tushgan. Shuningdek, moyjuvozni yurgazishda va xirmondagи bug‘doyni yanchishda ham ho‘kizlardan keng foydalanilgan[15].

Xulosa qilib ta’kidlash keraki, Surxon vohasi qo‘ng‘irotlarining an’anaviy xo‘jalik mashg‘ulotining, jumladan, chorvachilikdan sug‘orma dehqonchilikka o‘tish jarayoni siyosiy va iqtisodiy jarayonlar natijasida ro‘y bergen. Bu esa o‘z navbatida, qo‘ng‘irot etnogarfik guruhining xo‘jalik an’analarni tizimi transformatsiyalashuviga, jumladan, ushbu subetnosning kundalik hayoti, turmush tarzi, moddiy va ma’naviy madaniyati, dunyoqarashi hamda etnik identikligining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Bu holat qo‘ng‘irotlarning mintaqadagi boshqa xalqlar va subetnoslar bilan muntazam etnomadaniy aloqalari va xo‘jalik an’analari rivojlanishi hamda milliy konsolidatsiyalashuv jarayonlari bilan bog‘liq tarzda sodir bo‘lgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi.-T., 1994.- B. 109.
2. Qayumov A. O‘zbekistonda an’anaviy chorvachilikning tarixiy-etnografik tasnifi // Etnos va madaniyat: an’anaviylik va zamонавиylilik. «Akademik Karim Shoniyozov o‘qishlari» turkumida etnologlarning V Respublika ilmiy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent, 2009. – B. 242.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-OKTABR, 2024

3. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani Hayitobod qishlog‘i. 2022 yil.
4. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Chuqurko‘l qishlog‘i. 2021 yil.
5. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Munchoq qishlog‘i. 2021 yil.
6. Norboyev N. O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida. – Toshkent, 1997. – B. 25.
7. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. СПб, 1882. – С. 289. Справочная книжка Самарканской области. – Самарканд, 1895. Вып. 3. – С. 82.
8. Toshboyev F.E., Valiyev A.X. Ustrushona chorvadorlarining o‘y hayvonlari bilan bog‘liq diniy tasavvurlari // Tafakkur ziyosi. –T.: 2018, – № 1. – B. 44.; <https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/etti-hazina/1.05.2021>
9. Toshboyev F.E., Valiyev A.X. Ustrushona chorvadorlarining o‘y hayvonlari bilan bog‘liq... – B. 44.
10. Андрианов Б.В. Хозяйственно – культурные типы Средней Азии и Казахстана. – М., 1976. – С. 43–45.
11. Nosirov U.N. Qoramolchilik. – Т.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 2001. – В. 92.
12. Bababekov A. XX asr Sangzor–Zomin mintaqasi aholisining chorvachiligi: an’ana... – B. 6.
13. Nosirov U.N. Qoramolchilik... – B. 94.
14. Qurobonov R. Qoramolning asosiy kasalliklari.-Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2017.-B. 5.
15. Qobulov E. XVIII asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Surxon vohasi xo‘jaligi. - B. 170.